

**SEMENTBETON QOPLAMALI AVTOMOBIL YO'LLARINI  
SAQLASH ISHLARI SIFATINI BAHOLASH**

*Qodirov Sherali Shodiqul o'g'li*  
(*Jizzax politexnika instituti assistenti*)

*Anotatsiya Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ining foydalanuv holatini yaxshilash, yo'llarning transport-foydalanish sifatlarini oshirish va o'sib borayotgan harakat jadalligi talablarini qondirish uchun yo'llarni ta'mirlash va saqlash ishlarini sifatli baholash.*

*Kalit so'zlar. Sementbeton, sarf-xarajatlar, tuman koeffitsienti, Qishda saqlash, Ko'kalamzorlashtirish*

Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash ishlarining sifatini oshirish uchun ta'mirlash va saqlashishlarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan mexanizatsiyalash, yo'llarni ta'mirlash va saqlashga sarflanayotgan moliyaviy mablag'larni hamda moddiy-texnik resurslarni to'g'ri taqsimlash zarurdir.

Bugungi kunda Respublika Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ini ta'mirlash va saqlash ishlari uchun ajratilayotgan mablag'lar amaldagi sarf-xarajatlarga mos kelmasligi hollari uchraydi. Amaldagi sarf-xarajatlar tahlil qilinganda, 1km avtomobil yo'lini ta'mirlash va saqlash ishlariga sarflangan mablag'lar ba'zi bir hududlarda me'yordagidan bir necha borobar ko'p talab qilishini ko'rsatadi. Buning sababi-har qaysi hududning o'ziga xos yo'llardan foydalanish sharoitlari mavjudligidir.

Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash sarf-xarajatlarini aniqlashda, respublika hududini avtomobillar harakat sharoiti bo'yicha tumanlashtirish natijasida aniqlangan tumanlar koeffitsientidan foydalanamiz. Agar 1 km etalon sharoitdagi avtomobil yo'lini ta'mirlash va saqlash xarajatlarini vaqt me'yorlaridan kelib chiqib, Setal bilan belgilasak, u holda, ma'lum bir yo'l sharoitida 1 km Sementbeton qoplamali avtomobil yo'lini ta'mirlash va saqlashga talab

qilinadigan sarf-xarajatlar  $S_{1km}$  harakat sharoitidan kelib chiqib quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{1km} = S_{etal} K_{tum}$$

Bunda:  $S_{1 KM}$  – 1 km Sementbeton qoplamali avtomobil yo'lini joriy ta'mirlash va saqlash uchun talab qilinadigan haqiqiy xarajatlar, so'm; Set-etalon sharoitda 1 km Sementbeton qoplamali yo'lni joriy ta'mirlash va saqlash xarajatlari, so'm;

$K_{tum}$ -harakat sharoiti bo'yicha tuman koeffitsienti.

Taklif etilayotgan uslub harakat sharoitidan kelib chiqib, joriy ta'mirlash va saqlash sarf-xarajatlarini aniqlash hamda moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash ishlariga ajratilgan moddiy-texnik resurslarning yetishmasligi oqibatida yo'llarning haqiqiy va talab qilinadigan foydalanuv holati orasidagi farq kamayish o'rniga yildan-yilga oshib bormoqda.

Mavjud Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ining foydalanuv holatini yaxshilash bo'yicha vazifaning muhimligi va murakkabligi, yo'llarni ta'mirlash va saqlash yo'nalishidagi izlanishlarni birinchi navbatda quyidagi masalalar bo'yicha chuqurlashtirish va kengaytirish zarurligini anglatadi:

- yo'l xo'jaligi tashkilotlarini yangi zamonaviy texnikalar asosida takomillashtirish;
- Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarni ta'mirlash va saqlashga mo'ljallanadigan materiallar sarfi va moliyaviy xarajatlarning me'yorini yangidan ishlab chiqish;
- Sementbeton qoplamalarini ta'mirlash texnologiyalarining samarali usullarini ishlab chiqish;
- Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarni joriy ta'mirlash va saqlash ishlarini zamonaviy mashinalar bazasida kompleks mexanizatsiyalash;
- Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarni foydalanuv holatidan kelib chiqib ta'mirlash tadbirlarini belgilash.

yo'llarini saqlashlari talab darajasida bajarilmayapti. Bajarilayotgan saqlashishlarining sifati past. Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarini saqlash bo'yicha hududiy sharoitlar yetarlicha o'rganilmagan. Avtomobillar harakat sharoiti bo'yicha tumanlashtirish harakat sharoitini ta'minlashda hududiy shart-sharoitlarni baholash imkonini beradi. Avtomobillar harakat sharoitiga havo-iqlimning mavsumiy ta'siri Pmav ko'rsatkichidan foydalanib, saqlash ishlarini tashkil qilishni taklif etamiz. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash ishlari tasnifiga ko'ra, saqlash ishlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarini saqlash:

1a) yo'l poyi va suv qochirish tizimi bo'yicha bajariladigan ishlar; 1b) yo'l to'shamasi bo'yicha bajariladigan ishlar; 1v) sun'iy inshootlar bo'yicha bajariladigan ishlar; 1g) avtomobil yo'llarini jihozlash va harakat xavfsizligini

ta'minlash bo'yicha bajariladigan ishlar. 2. Qishda saqlash;  
3. Ko'kalamzorlashtirish.

Avtomobillar harakat sharoiti bo'yicha tumanlashtirish xaritasi asosida avtomobil yo'llaridan foydalanish bo'yicha hududiyshart-sharoitlar aniqlandi. Har qaysi harakat sharoiti bo'yicha tumanlarda aniqlangan yo'llardan foydalanish sharoitlaridan kelib chiqib, yildavomida avtomobil yo'llarini va yo'l inshootlarini saqlash bo'yicha ishlar muhimligi va salmog'iga ko'ra ketma-ketligi belgilandi hamda ishlarini samarali tashkil qilish tadbirlari ishlab chiqildi

Sementbeton qoplamali avtomobil yo'llarida saqlash ishlarini samarali tashkil qilish Harakat sharoiti bo'yicha mintaqalar va tumanlar Sementbeton qoplamali avtomobil yullarida saklash ishlarini samarali tashkil qilish saqlash ishlarini tashkil qilishda bajariladigan ishlartasnifidan vatarkibidan kelib chiqib, ularni xududlarga bog'laganholda, ishlarni muhimligiga ko'ra bajarilish ketma ketligi berilgan. Masalan, harakat sharoiti bo'yicha Ia tumanda eng avvalo (1b) yo'l to'shamasibo'yicha ishlar, keyin o'rinda qishdagi saqlash ishlari, (1a) yo'l poyi vasuv qochirish tizimi bo'yicha ishlar, (1g) avtomobil yo'llarini jihozlash vaharakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlar, (1v) sun'iy inshootlarbo'yicha ishlar,

ko'kalamzorlashtirish bo'yicha ishlar bajarilishi lozim. yo'l joylashgan tuman aniqlanadi va ushbutumanda bajarilishi lozim bo'lgan saqlash ishlari ketma-ketligi belgilabolinadi. Ishlab chiqilgan tavsiyalarda avtomobillar harakat sharoiti bo'yichatumanlar shart-sharoitlari hisobga olingan bo'lib, avtomobil yo'llaridan foydalanishda bajariladigan ishlarni samarali tashkil qilish imkoniniberadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini ta'mirlash vasaqlash ishlari tasnifi. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 1 noyabrdagi 226-son qaroriga 1-ilova. – T.: O'zavtoyo'l DAK, 2006. - 18 b.129
2. Avtomobil yo'llarini rivojlantirishning dolzarb muammolari: “Avtomobil yo'llar qo'mitasi” 2019 yil hisoboti. – Toshkent, 2019.
3. Sherali Shodiqul O'G'Li Qodirov Ko'prik oraliq qurilmalarining dinamik parametrlarini baxolash ussularini takomillashtirish // Science and Education. 2023. №7. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/ko-prik-oraliq-qurilmalarining-dinamik-parametrlarini-baxolash-ussularini-takomillashtirish> (дата обращения: 09.12.2023).
4. Sherali Shodiqul O'G'Li Qodirov Mamlakatimizdagi A-373 “Toshkent-O'sh” avtomobil yo'lidagi ko'priklar mavjud holatining tahlili // Science and Education. 2023. №11. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakatimizdagi-a-373-toshkent-o-sh-avtomobil-yo-lidagi-ko-priklar-mavjud-holatining-tahlili> (дата обращения: 09.12.2023).
6. Sherali Shodiqul O'G'Li Qodirov Ko'prik inshootlarning xolatini baxolash va ishonchliligi sabablari // Science and Education. 2023. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ko-prik-inshootlarning-xolatini-baxolash-va-ishonchliligi-sabablari> (дата обращения: 09.12.2023).